



## KARIYES TISH KASALLIGI VA UNGA BOG'LIQ JARAYONLAR

*Ganiyeva Dilaramhon Urmanjanovna,*

*Andijon Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi,  
Hamshiralik ishi kafedrasi katta o'qituvchisi.*

*Qayumova Soxiba Abdumannopovna,*

*Andijon Abu Ali ibn Sino jamoat salomatlik texnikumi,  
Hamshiralik ishi kafedrasi o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kariyes kasalligi va kariyes kasalligi patologik jarayonlari haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib, kelib chiqish sabalari va kasalliklarni oldini olish haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Anatomik, topografik, kariyes, emal, dentin, premolyar.

Bugungi kunda sog'liqni saqlash eng asosiy muammolardan biriga aylanmoqda. Ekologik muammolar, ichimlik suvi, insoniyatning tabiatga bo'lgan munosabati ham turli xil kasalliklarning keltirib chiqarmoqda. Ekologik muammolar ichimlik suvi tanqisligi sabab turli xil kasalliklar dunyo bo'yicha tarqalmoqda jumladan, vitamin yetishmovchiligi kariyes kasalligini keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Kariyes – lotincha so'z bo'lib "chirish" degan ma'noni anglatadi. Kariyes kasalligi bugungi kunda dunyo aholisining 95% da uchraydi. Kariyes patologik jarayon bo'lib, bunda tish to'qimalari tez yoki seekin yemiriladi. Tishda kovak hosil bo'ladi.

Kariyes og'iz bo'shlig'i kasalliklarining eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, oddiy til bilan aytganda uni tish to'qimalariga zarar yetkazuvchi infeksiya deya atash mumkin.

Og'iz bo'shlig'ida mavjud bo'lgan bakteriyalar tishlar atrofida yig'ilib qoladi, oqibatda tish karashi paydo bo'lishiga olib keladi. Tish karashi shakar, shirin suyuqliklar va boshqa moddalar bilan o'zaro ta'sirga kirishgan vaqtida kariyes yuzaga keladi. Avvaliga u faqatgina tish emaligining ustki qatlamini zararlaydi, keyin esa dentinga qadar yetib boradi. Agar kariyes pulpaga qadar yetib borgan bo'lsa, bemor kuchli og'riq hissini tuyadi.

Hozirgi vaqtida kariyesning kelib chiqishining asosiy sabablari:

1. og'iz bo'shlig'i mikroflorasi
2. ovqat va ovqatlanish rejimi
3. suv tarkibidagi ftorning miqdori
4. so'lak tarkibi va hajmi



5. organizmning umumiy holati
6. tashqi va ichki muhitdagi endogen va ekozegen faktorlar
7. tuz miqdoring ortishi

Kariyesning uch xil turi mavjud: Anatomik, topografik va klinik. Anatomik tasnif asosan emal kareysi, dentin karyesi, sement karyesidan iborat. Topografik karyes-xastalik ancha chuqurlashgan bo'ladi. Dog' shaklidagi karyesda uch xil ko'rinish bo'adi. Yuza kariyes, orta kariyes, chuqur kariyes. Chuqur kariyesni davolashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Kariyes kovaklari blek disura tasnifiga asosan V ta sinfga bo'linadi:

- I. sinf kichik va katta oziq tishlarning fissuralari, tabiiy izlarda joylashgan kariyes kovaklari.
- II. sinf premolyar va molyarlarning kontakt yuzalarida joylashgan kovaklari.
- III. sinf kesuv qirralarining butunligi saqlangan qoziq va kesuv tishlarining kontakt yuzalaridagi kariyes kovagi
- IV. kesuv qirra burchagining butunligi buzilgan qoziq va kesuv tishlarining kontakt yuzasidagi kovagi.

V. sinf tishlaring vestibulyar va oral yuzalarining bo'yin qismida joylashgan kariyes kovaklari dog' shaklidagi karyesdan bemorlarda og'riq sezilmaydi ammo, tishning yuza yoki bo'yin qismida yaltiroqlik yoki tish rangi o'zgarishi kuzatiladi.

Yuza kariyes – bemorda ximik ta'sirlar shirin, nordon, sho'r maxsulotlar iste'mol qilganda ta'sirli og'riq paydo bo'ladi. O'rta va chuqur karyeslar inson organizmining ichki va bosh qismlariga ta'sir etadi. O'rta va chuqur karyeslara inson organizmi sekinlik bilan sustlashib boradi. Karyeslarning davolashda B, D, E vitaminlar va mineral komponentlar tavsiya etiladi. Inson organizmi guikanat, kalsiy, fitin iste'mol qilganda tishlarda yaxshi o'zgarishlar kuzatiladi. Hozirgi vaqtgacha kariyes kasalligining asosiy sabablari aniqlanmagan bo'lib, ammo kariyes proflaktikasi uchun omillar o'rganilgan.

1. tish karashlari mikroorganizmlari
2. shirinliklar
3. fтор taqchilligi
4. vitaminlar yetishmovchiligi
5. tish pastalarning sifati.

Hozirgi kunda innovatsion qurilmalar orqali yaratilgan tizimlar ko'plab imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Qurilmalarni boshqarish tizimida tishni holatini o'rganish va unga bog'liq kasallikkarni aniqlashda qo'llanilmoqda. Kariyesga qarshi kurashishning yana bir usuli shirinliklarni bir o'zini emas, boshqa turdag'i yeguliklar bilan birga tanovul qilishdir. Shuningdek, limon va nordon olmani ham haddan



tashqari ko‘p iste’mol qilish mumkin emas. Zero tishlarimizning sog’lomligi – sog’lom hayotimiz omilidir. Kariyes kasalligining oldini olish uchun kunlik taomnomaga ham e’tibor qaratish lozim. Kasalliklarni eng og’ir kechadigan va inson sabri yetishi qiyin bo’lgan og’riqni aynan tish kasallillari ham keltirib chiqaradi.

**Foydalanimagan adabiyotlar:**

1. “Stamatologik kasalliklar” kitobi
2. “Olinmaydigan tish pratezlar” Abilov N.L. Akbarov N
3. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.